



QISHLOQ XO'JALIGI TERMINLARINING INGLIZ TILIDAGI TARJIMASI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Xamidova Tilivatxon Raxmatjonovna

Toshkent davlat agrar universiteti,
nemis tili o'qituvchisi. miss_till11@mail.ru
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6616420>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022
Accepted: 02nd June 2022
Online: 05th June 2022

KEY WORDS

qishloq xo'jaligi,
terminologiyasi, tarjima,
chet tillarini o'rgatish;
qishloq xo'jaligi
atamaları; kasbiy
atamalar; maxsus
shartlar; umumiy
shartlar.

Mamlakatimizda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o'quv-metodik ta'minotini yaxshilash, mutaxassis kadrlar tayyorlash sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida professor-o'qituvchilarning ilg'or ta'lim texnologiyalari va o'qitish usullarini tatbiq etish bo'yicha tashabbuskorligini oshirish, chet tillarini o'qitishning interfaol metodlarini joriy etish imkoniyatlari kengaymoqda. Respublikamizla ta'lim tizimida tub o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi vaqtda o'qitishning mazmuni va metodlari tubdan qayta ko'rib chiqish xorijiy tillarni o'qitish metodikasi tarixiga va uning rivojlanishidagi asosiy tendensiyalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki axborotlar almashinuvi ya'ni texnologiya asrida chet tillarini ayniqsa ingliz tilini bilish davr talabi bo'lib bormoqda. Til o'rganish bizga nafaqat chet tili bilishni balki o'sha mamlakat aholisi

ABSTRACT

Maqolada qishloq xo'jaligi terminologiyasi va uning o'rganilish masalalari, xususan ingliz tiliga tarjimasidagi o'ziga xos jihatlar va amalga oshirish, mutaxassislarga o'rgatish borasidagi fikr-mulohazalar keltirilgan

bilan bemaol suhbatlasha olishni, ularning madaniyati bilan tanishish, boshqa mamlakatlarda ro'y berayotgan fan va texnologiya yangiliklaridan xabardor bo'lish va ularda o'z yangiliklarimiz bilan ishtirok etish kabi imkoniyatlarni beradi. Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimizda ham chet tillarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarori, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 12-oktabrdagi 646-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 19.05.2021 yildagi "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi " 312-sonli



qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 11.08.2017 yildagi "Ta'lim muassasalarida chet tillarini o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida "gi 610-son qarori va boshqa shunga monand qonun va qarorlar mamlakatimizda xorijiy tillaarni o'qitish tizimi, xususan ingliz tilining rivojiga kata turtki bo'lmoqda

Joriy yilda prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'qitish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videosektor yig'ilishida 2021-yildan chet tili o'qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi kiritilishi xaqida ta'kidlang edi:

"Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishning ilg'or uslublarini joriy etish yo'li bilan, o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillariga o'qitish, shu tillarda erkin so'zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda buning negizida, ularning jahon sivilizatsiyasi yutuqlari hamda dunyo axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun shart-sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida:

Belgilab qo'yilsinki, 2020-2021 o'quv yilidan boshlab:

Respublikaning barcha hududida chet tillarni, asosan, ingliz tilini o'rganish umumta'lim maktablarining birinchi sinflaridan o'yin tarzidagi darslar va og'zaki nutq darslari shaklida, ikkinchi sinfdan boshlab esa, alifbo, o'qish va grammatikani o'zlashtirishdan bosqichma-bosqich boshlanadi;

Oliy o'quv yurtlarida ayrim maxsus fanlarni, xususan, texnik va xalqaro mutaxassisliklar bo'yicha o'qitish chet tillarda olib boriladi;

Umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari va o'qituvchilarini chet tillar bo'yicha darsliklar va o'quv-uslubiy komplekslar bilan ta'minlash, ularni belgilangan muddatlarga rioya etilgan holda qayta nashr etish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg'armasining aylanma mablag'lari hisobidan bepul amalga oshiriladi".

Chet tillarni o'qitishda nofilologik oliy o'quv yurtlarida mutaxassislik fanlarni chet tilida olib borish muhimdir. Chunki talaba nafaqat chet tilida erkin so'zlay olishi, balki o'zining sohasidagi chet ellik kasbdoshlari bilan soha yuzasidan ham erkin fikr almasha olishi muhim. Buning uchun albatta talabaga mutaxassislik fanlari ingliz tilida o'qitilishi va mutaxassislikka doir barcha atamalar tanishtirilishi kerak. Chunki sohaga oid maxsus atamalar o'sha soha bilimining asosini tashkil qiladi. Atamalarni ham biz umumiy atamalar yoki ilmiy atamalar kabi turlarga ajratishimiz mumkin. Masalan bugungi kundagi eng rivojlangan sohalardan biri Qishloq Xo'jaligi sohasini misol keltirsak bu soha har bir mamlakatning asosini tashkil qiladi. Chunki O'zbekiston Respublikasi agrar sohaga ixtisoslashganiligi uchun qishloq xo'jaligi sohasi mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi. Buni prezidentimizning fermerlarga va fermerchilikka qaratayotgan e'tiborlaridan ham misol ko'rsatlab bo'ladi. Shunday ekan qishloq xo'jaligi mutaxassislarini ingliz tilida ravon so'zlay olishi va mutaxassislik atamalarini to'liq qo'llay olishi juda muhimdir .



Har bir soha o'zining maxsus atamalariga egadir. Shu jumladan qishloq xo'jaligi sohasi ham o'z atamalariga ega. Atamalarni biz umumiy va maxsus atamalar kabi turlarga ajratsak bo'ladi. Qishloq Xo'jaligi sohasidagi root, food ya'ni tomir, oziq-ovqat kabi so'zlar umumiy atamalar hisoblanib, bu so'zlarni kundalik hayotimizda ham juda keng foydalaniladi. Shuningdek Qishloq Xo'jaligi sohasida maxsus ishlatiladigan atamalar ham mavjud. Bu atamalar fa- qat shu soha vakillari tomonidan ishlatiladi. Masalan, red beet-qizil lavlagi, sugar beet-shakar lavlagi, winter hardiness-kuzgi chidamlilik, winter wheat-kuzgi bug'doy, trace elementsmikroelemenla, stuble-ang'iz, ear-boshhoq, furrows-jo'yaklar, field germinationdala unuvchanligi, radicle-murtak ildiz, waxy ripeness-mum pishish, milk ripenesssut pishish, full ripeness-to'liq pishish, weight of seed-urug' vazni, residue-qoldiq, repetition-qaytariq. Demak, ba'zi so'zlar tarjimada to'g'ridan to'g'ri tarjima qilinsa, boshqalari tarjima qilinayotgan tildagi mos so'z bilan almashtiriladi. Tarjima qilingan so'zlardan winter hardiness, winter wheat so'zlari kuzgi chidamlilik, kuzgi bug'doy deb

tarjima qilindi. Bundan ko'rinib turibdiki winter qish so'zi o'zbek tiliga kuz so'zi bilan almashtirildi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda sohaga tegishli bo'lgan atamalarni bilmaslik noto'g'ri tarjimaga va noto'g'ri axborot almashinuviga olib keladi. Shuning uchun hozir globallashuv, xalqaro integratsiya va axborot almashinish jarayonida chet tillarini biladigan mutaxassislarni tayyorlash juda muhimdir. Chunki har qanday sohada faol va samarali ma'lumot almashish chet tilini mukammal biladigan mutaxassislarni talab qiladi. Buning uchun albatta mutaxassislikka oid chet tilidagi o'quv qo'llanmalar va lug'atlar talab etiladi. Chunki atamalar turli tillarda turlicha izohlanadi. Bu albatta mamlakatning iqtisodiyotidan, tushmush- tarzidan, yashash sharoitidan kelib chiqadi. Har bir sohaga oid ingliz tilidagi mutaxassislikka oid lug'atlar va o'quv qo'llanmalar yaratilishi o'z sohasini mukammal biladigan va chet tillarida bemalol o'z sohasi yuzasidan axborot almasha oladigan mutaxassislar tayyorlashga yordam beradi. Chet tillarini muk- ammal biladigan yoshlar esa O'zbekiston kelajagining poydevoridir.

References:

1. Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh., 2012-yil 10-dekabr, PQ- 1875-son.
2. Iriskulov A. T. va boshqalar Kids' English pupil's book 2-sinf-Toshkent-O'zbekiston; 2014.
3. Hoshimov O'. H, Yakubov I.Y.A. Ingliz tili o'qitish metodikasi-Toshkent-2003-yil.
4. <http://www.ziyonet.uz>.
5. <http://www.pedagog.uz>.
6. Cyberlrninka.ru
7. Google.com
8. Иванова М. В. Об использовании глоссариев в учебном процессе. URL: http://tverlingua.ru/archive/010/11_10.htm.



9. Гринев С. В. Введение в терминоведение. М.: Московский Лицей, 2013.